



<https://doi.org/10.70728/a.series.ijt.v08.i05.085>

## BUXORO AMIRLIGIDAGI AFG‘ON FUQAROLARINING IJTIMOIY-HUQUQIY AHVOLI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)

**Ramshod Raxmatov**

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

e-mail: [ramshod.raxmatov@gmail.com](mailto:ramshod.raxmatov@gmail.com)

Tel: +998 99 385 17 32

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida istiqomat qilgan afg‘on fuqarolarining ijtimoiy-huquqiy ahvoli tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Bunda Buxoro hududidagi afg‘on fuqarolarining etnik tarkibi, kasb-hunar faoliyati, savdo aloqalari va huquqiy maqomini bayon qilinadi. Manbalarda qayd etilishicha, afg‘onlar Buxoroning yirik shaharlarida savdo, zargarlik va harbiy xizmat bilan shug‘ullangan. Shu bilan birga ular huquqsizlik, amaldorlar tomonidan mulkiy zo‘ravonlik va yetarli huquqiy himoyadan mahrum bo‘lish kabi muammolarga duch kelgan. Rossiya imperiyasining Buxorodagi siyosiy agentlari ushbu muammolarni hal etish uchun chegara komissarliklari va maxsus huquqiy mexanizmlar joriy etishni taklif qilgan. Maqola rus, o‘zbek va xorijiy mualliflarning arxiv va tadqiqot asarlariga tayanib, mazkur davrda afg‘on-buxoro va afg‘on-rus munosabatlarining murakkab holati yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Buxoro amirligi, afg‘on fuqarolari, muhojirlar, savdo aloqalari, huquqiy ahvol, chegara komissarligi, Rossiya imperiyasi, ijtimoiy tarix, Markaziy Osiyo, XIX–XX asrlar.

**Аннотация:** В данной статье на основе исторических источников анализируется социально-правовое положение афганских граждан, проживавших в Бухарском эмирате в конце XIX — начале XX века. Исследование посвящено этническому составу, профессиональной деятельности, торговым связям и правовому статусу афганских мигрантов на территории Бухары. Согласно источникам, афганцы были заняты торговлей, ювелирным делом и военной службой в крупных городах эмирата. Вместе с тем они сталкивались с серьёзными проблемами: бесправием, имущественным произволом со стороны чиновников и отсутствием надлежащей правовой защиты. Российские политические агенты в Бухаре предлагали ввести пограничные комиссарства и специальные правовые механизмы для решения этих вопросов. Опираясь на

российские, узбекские и зарубежные архивные материалы и научные труды, статья освещает сложный характер афгано-бухарских и афгано-российских отношений в рассматриваемый период.

**Ключевые слова:** Бухарский эмират, афганские граждане, мигранты, торговые связи, правовое положение, пограничное комиссарство, Российская империя, социальная история, Центральная Азия, XIX–XX века.

**Abstract:** This article analyses the socio-legal status of Afghan citizens residing in the Bukhara Emirate during the late 19th and early 20th centuries, based on historical primary and secondary sources. The study examines the ethnic composition, occupational activities, trade relations, and legal position of Afghan migrants within Bukharan territory. Sources indicate that Afghans were engaged in trade, jewellery craftsmanship, and military service in the major cities of Bukhara. At the same time, they faced serious challenges, including legal vulnerability, administrative extortion, and a lack of effective legal protection. Russian political agents stationed in Bukhara proposed the establishment of border commissions and special legal mechanisms to address these issues. Drawing on Russian, Uzbek, and foreign archival and scholarly works, the article sheds light on the complex nature of Afghan-Bukharan and Afghan-Russian relations during this period.

**Keywords:** Bukhara Emirate, Afghan citizens, migrants, trade relations, legal status, border commissariat, Russian Empire, social history, Central Asia, 19th–20th centuries.

## KIRISH

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi Markaziy Osiyoning eng muhim siyosiy va savdo markazlaridan biri bo‘lib, uning hududida turli xalqlar va millat vakillari yonma-yon yashagan. Ular orasida afg‘on fuqarolari alohida o‘rin tutgan: ular savdo, hunarmandchilik va harbiy xizmat bilan shug‘ullanib, amirlik hayotiga o‘ziga xos hissa qo‘shgan.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan kelib chiqadiki, afg‘on fuqarolarining Buxoro amirligidagi ijtimoiy-huquqiy ahvoli ilmiy adabiyotlarda hali yetarlicha o‘rganilmagan. Mavjud tarixiy manbalar ularning ahvolini turlicha yoritadi: bir tomondan, afg‘onlar mahalliy aholi bilan birgalikda savdo va kasb-hunar sohasida faoliyat yuritgan; boshqa tomondan esa, ular huquqiy jihatdan himoyasiz bo‘lganlar va amaldorlar tomonidan zo‘ravonlikka uchragan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, afg‘on fuqarolarining Buxorodagi mavjudligi tasodifiy ko‘chish hodisasi emas, balki ikki qo‘shni hududning uzoq tarixiy, diniy va madaniy aloqalarining tabiiy davomi edi. Umumiy savdo yo‘llari va o‘xshash turmush tarzi afg‘onlar uchun Buxoroni «begona» emas, «qarindosh» muhit sifatida anglashga zamin yaratgan. Aynan shu omil ularning juda keng ko‘lamda va nisbatan erkin harakat qila olishlarini tushuntiradi.

Maqolaning maqsadi – XIX asr oxiri va XX asr boshlariga oid birlamchi manbalar hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida Buxoro amirligidagi afg‘on fuqarolarining ijtimoiy

ahvoli, huquqiy maqomi va ular bilan bog‘liq siyosiy masalalarni kompleks tarzda tahlil etishdan iborat.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

### **Adabiyotlar tahlili**

Buxoro amirligidagi afg‘on fuqarolari mavzusini yoritishda bir nechta asosiy manba guruhidan foydalanildi. Birinchi guruhni rus imperiya davri mualliflari D.N. Logofet, V.I. Lipskiy, Xaydarsho Pirumshoyev kabi tadqiqotchilarning asarlari tashkil etadi. D.N. Logofetning «Buxoro xonligi rus protektorati ostida» nomli ikki jildlik asari [1] Buxorodagi afg‘on savdogarlarining huquqiy ahvoli, ularning mulkiga nisbatan zo‘ravonlik holatlari va zaruriy islohotlar bo‘yicha eng batafsil tahlilni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchi guruhga xorijiy sayohat va ilmiy tadqiqot asarlari kiradi. Daniyalik sayyoh O. Olufsenning «Buxoro amiri va uning mamlakati» [2] nomli asarida afg‘onlarning tashqi ko‘rinishi, libosi va shaharlardagi turmush tarzi jonli tasvirlangan. Uchinchi guruh — sovet davri tarixshunosligi. A.I. Ishonovning [3] va A.I. Plyovning [4] asarlari afg‘on ko‘ngillilari va amirlik armiyasidagi ularning roli bo‘yicha muhim ma‘lumotlar beradi. O‘zbek tarixshunosligi vakili sifatida Q. Rajabov va S. Inoyatovning «Buxoro tarixi» [5] asari ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Abdurauf Fitratning «Amir Olimxonning hukmronlik davri» asari [6] esa birlamchi manba sifatida afg‘on askarlarining Buxoro amiri xizmatidagi intizom muammolarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoritadi. X. Pirumshoyevning rus tilidagi fundamental tadqiqoti [7] Sharqiy Buxoro shaharlari bo‘yicha qimmatli demografik ma‘lumotlar beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud manbalarning aksariyati rus va sovet mualliflari tomonidan yozilgan bo‘lib, afg‘on tomonining nuqtai nazari deyarli aks ettirilmagan. Bu holat tadqiqotning obyektivligiga ma‘lum darajada ta’sir qiladi va kelajakda afg‘on arxivlariga, xususan Kobul va Qandahor hujjatlariga murojaat etish zarurligini belgilaydi. Ingliz manbalari ham XIX–XX asr chegarasida Buyuk Britaniyaning Buxoro va Afg‘onistandagi razvedka faoliyati keng edi va muhim to‘ldiruvchi manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

### **Metodlar**

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: tarixiy-taqqosiy metod – turli davr va manbalardagi ma‘lumotlarni solishtirish; tarixiy-tavsifiy metod – afg‘on fuqarolarining turmush tarzi va faoliyatini birlamchi manbalarga asoslanib tavsiflash; manbashunoslik tahlili manbalarning ishonchliligi va xolisligini baholash; miqdoriy tahlil – demografik va moliyaviy ma‘lumotlarni (jadvallar, hisobotlar) qayta ishlash.

Geografik doira: Buxoro amirligi hududi Buxoro shahri, Qarshi, Ko‘lob, Qorategin, Termiz, Patta-Gisar, Darband va Amudaryoning janubiy hududlari. Xronologik doira: 1870-yillardan 1920-yilgacha — ya’ni Buxoro amirligining rus protektorati davridan to Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil topguniga qadar.

## **NATIJALAR**

Afg‘onlarning etnik identifikatsiyasi va joylashuvi

Manbalar afg‘on fuqarolarini tashqi ko‘rinishi bilan mahalliy aholidan aniq ajratib turgan shaxslar sifatida tasvirlaydi. O. Olufsen ularni quyidagicha tavsiflaydi: «O‘tkir, aniq jangovar qiyofasi, katta bug‘u burunlari, qora sochlari va ko‘zlari, oq jun kaftanlari va sallalari hamda sariq charm etiklari bilan osongina tanib olish mumkin» [2, 301]. Qarshi shahridagi karvonsaroylarda esa afg‘onlar «qop-qora soqollari va oppoq kiyimlari bilan mahalliy aholiga nisbatan yaqqol ajralib» [2, 564] turgan.

Afg‘on fuqarolari Buxoro amirligining bir nechta yirik markazlarida qayd etilgan. Buxoro shahrida ular alohida saroylarida yashab, «Buxoro xalqining dindoshlari bo‘lganliklari sababli» [2, 301] mahalliy aholi bilan bir xil munosabatda bo‘lishgan. Qarshida asosan karvonsaroy va savdo inshootlarida to‘planganlar. Ko‘lobda esa General A.K. Razgonov aholining «nihoyatda aralash» ekanligini ta’kidlab: «tojiklar, o‘zbeklar, afg‘onlar va hatto bir nechta hindlar yashaydi» [7, 53] deb yozgan.

Ushbu ma’lumotlardan muhim xulosaga kelish mumkin: afg‘onlarning geografik tarqalishi tasodifiy emas, balki savdo yo‘llari va strategik nuqtalar bilan chambarchas bog‘liq edi. Qarshi kabi katta yo‘llar tutashadigan shaharlarda afg‘on karvonlari, Kabadiyanda zargarlik ustaxonalari, Ko‘lob va Patta-Gisarda chegara aholisi bu manzara afg‘onlarning amirlik iqtisodiyotiga tizimli ravishda integratsiyalashganini ko‘rsatadi, ya’ni ular tasodifiy mehmon emas, balki muntazam iqtisodiy ishtirokchilar bo‘lgan.

Kasb-hunar faoliyati

Afg‘on fuqarolari Buxoro amirligida asosan uch sohada faoliyat yuritgan: savdo, hunarmandchilik va harbiy xizmat.

Savdo sohasida afg‘onlar Amudaryodan o‘tib, «sayohatchi savdogar sifatida» [2, 301] Buxoroga muntazam tashrif buyurgan. D.N. Logofet ularning savdo uslubini quyidagicha tavsiflaydi: «tovar uchun odatda faqat bir qismi naqd pul bilan to‘lansa-da, qolgan summa muddatli qarzga beriladi; biroq shu bilan birga afg‘on va buxorolik savdogarlar o‘rtasidagi barcha hisob-kitoblar katta halollik va vijdonlilik bilan amalga oshiriladi — aldash yoki to‘lmaslik holatlari deyarli uchramaydi» [1, 237]. Bu tavsif kreditga asoslangan savdo tizimining mavjudligini va afg‘on savdogarlarining ishonchli hamkor sifatida qabul qilinganligini ko‘rsatadi.

Hunarmandchilik sohasida afg‘onlar asosan zargarlik bilan shug‘ullangan. A.A. Semenov va L.P. Kolpakov Kabadian bozorini tasvirlab, zargarlik ustaxonalarida «broshlar, uzuklar, bilaguzuklar va boshqa ayollar zargarlik buyumlari ishlab chiqarilganini» va «zargarlar afg‘onlar, lo‘lilar va hindlar edi» [7, 77] deb qayd etgan.

Harbiy xizmat sohasida afg‘on fuqarolarining ishtirokini Fitrat ham, Plyov ham alohida ta’kidlaydi. Amir Olimxon afg‘on ko‘ngillilarini yig‘ib, ularni kiyim va qurol bilan ta’minlab,

\_\_\_\_\_ **Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2026-yil 5-son** \_\_\_\_\_ **A seriya**  
askarlar safiga qo‘shgan [6, 35-36]. 1918-yil bahorida Buxoroda ingliz zobitlari qo‘mondonligi ostida taxminan 2000 afg‘on ko‘ngillisi bo‘lgan [3, 60].

**1-jadval. Patta-Gisarda yashovchi aholi tarkibi (1917-yil, iyul)**

| Aholi guruhi                                         | Soni (kishi) | Ulushi (%) |
|------------------------------------------------------|--------------|------------|
| Ruslar (Termiz bilan birga)                          | 8 000        | ~92.7      |
| Buxoroliklar                                         | 640          | ~7.4       |
| Afg‘onlar                                            | 257          | ~3.0       |
| Forslar                                              | 180          | ~2.1       |
| Rus musulmonlari (tatarlar, boshqirdlar, chechenlar) | 120          | ~1.4       |
| Rus yahudiylar                                       | 50           | ~0.6       |

Manba: X. Pirumshoyev [7, 47] ma’lumotlari asosida tuzildi.

**2-jadval. Afg‘oniston bilan chegara Komissarlari boshqarmasi xarajatlari**

| Lavozim nomi                      | Soni | Maosh (rubl) |
|-----------------------------------|------|--------------|
| Chegara komissarlari              | 2    | 8 000        |
| Kotiblar                          | 2    | 3 200        |
| Kanselyariya xizmatchilari        | 2    | 1 200        |
| Xona ijarasi, isitish va yoritish | —    | 2 000        |
| Jami:                             | —    | 14 400       |

Manba: D.N. Logofet [1, 304] ma’lumotlari asosida tuzildi.

Ko‘chib kelish jarayoni

Afg‘on fuqarolarining Buxoro amirligiga ko‘chib kelish jarayoni zulm va huquqsizlikka javob tariqasida yuzaga kelgan. Buxorodagi siyosiy agent K. Ignatyev 1897-yil 22-noyabrda Toshkentga yo‘llagan hisobotida qayd etgan: «Darvoz bek Mirza-Yo‘ldoshbiyning xabariga ko‘ra, yaqinda Afg‘on Darvozidan Buxoro Darvozigacha taxminan 300 oila ko‘chib o‘tgan, bu ilgari ko‘chib kelgan 410 oila bilan 700 dan ortiq oilani tashkil qiladi» [8, 95]. Ko‘chib

kelganlarning bir qismi Buxoro Darvozining o‘zida qolgan, qolganlari esa Ko‘lob va Qorategin beklariga joylashgan.

Ko‘chib kelish ko‘lamiga e‘tibor qaratish lozim: 1897-yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra 700 dan ortiq oila — taxminan 3 000-4 000 kishi — Buxoro amirligida yasharkan. Agar bu raqam faqat rasmiy hisobdagi oilalar bo‘lsa, haqiqiy ko‘rsatkich ancha yuqori bo‘lgan deb taxmin qilish mumkin. Bu miqyos afg‘on muhojirligini o‘sha davr uchun sezilarli migratsiya hodisasi sifatida baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, afg‘on qo‘riqlash postlarining keyingi ko‘chishlarning oldini olishga urinishi ham o‘sha tomondan chiqib ketishlar muammo darajasiga yetganini ko‘rsatadi.

### **MUHOKAMA**

Huquqiy himoyasizlik muammosi

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Buxoro amirligidagi afg‘on fuqarolarining eng og‘ir muammosi ularning huquqiy jihatdan himoyasiz bo‘lganligidir. D.N. Logofet ushbu holatni aniq tavsiflaydi: «Buxoro hududidagi afg‘on fuqarolarining ahvoli mutlaqo huquqsiz bo‘lib qolmoqda, chunki ular murojaat qilib himoya so‘ray oladigan biror mansabdor shaxs yo‘q» [1, 237]. Buxoro beklari va amlokdorlari badavlat afg‘onlarni pul undirib olish maqsadida jinoyatda ayblab qamoqqa tashlagan, ularning mol-mulkini musodara qilgan [1, 238].

Ushbu holat ikki jihatdan murakkablashgan. Birinchidan, Buxoro amaldorlari musodara qilingan mol-mulkni o‘z manfaatlariga ishlatib, buni «rus harbiy hokimiyatining topshirig‘i» [1, 237] bilan amalga oshirilgan deb ko‘rsatgan. Bu esa afg‘onlar orasida ruslarga nisbatan noto‘g‘ri norozilikni keltirib chiqargan. Ikkinchidan, Buxoro hududida vakolat tutgan rus zobitlari va amaldorlari bu hollardan xabardor bo‘lishsa-da, «aralashishga haqlari yo‘q» [1, 237] edi — chunki Buxoro rasmiy ravishda rus protektorati bo‘lsa-da, ichki boshqaruv amirlikka tegishli edi.

Bu ikkilamchi vaziyat Rossiya himoya qilishni xohlay turib, qonuniy asosda aralasha olmaslik holatirus protektorat tizimining o‘zidagi tizimiy qarama-qarshilikni namoyon etadi. Bir tomondan Rossiya Buxoro ustidan siyosiy nazorat o‘rnatgan, boshqa tomondan amirlikning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyiliga amal qilgan. Afg‘on fuqarolari esa aynan mana shu ikki yo‘nalishli siyosatning «orasida qolib» ketgan. Bu holat zamonaviy xalqaro huquq nuqtai nazaridan ham qiziqarli: u «boshqariladigan hududdagi uchinchi tomon fuqarolarining huquqiy maqomi» muammosini XIX asr oxirida ham dolzarb bo‘lganini ko‘rsatadi.

Harbiy jihat: intizom muammosi

Afg‘on ko‘ngillilari Buxoro armiyasida alohida muammo bo‘lib turgan. Fitratning yozishicha, amir Olimxon ularni qo‘shin safiga qo‘shganida, afg‘onlar «saroydagi bema‘nilik va tartibsizliklarni tezda payqab, bo‘ysunmaslikni boshladilar. Ularning biror nafari amirni ham va vazirni ham bir qora chaqaga olmas edi» [6, 35-36]. S. Ayniyning so‘zlariga ko‘ra ham, afg‘on yollanma askarlar intizomliligi bilan mashhur emas edilar va tez orada qurolsizlantirilib, Buxorodan olib chiqilishi kerak edi [4, 131-132].

1918-yil bahorida ingliz zobitlari qo‘mondonligida bo‘lgan taxminan 2000 afg‘on ko‘ngillisi [3, 60] va 1920-yilgacha davom etgan afg‘on harbiy yordami aslida Buxoro amirligining Sovet Rossiyasiga qarshi kurashida xorijiy kuchlardan foydalanishga urinishi edi. V. Medvedevning tadqiqotida qayd etilishicha, «2000 afg‘on askarining qo‘zg‘oloni kommunistik qo‘zg‘olon bilan hech qanday aloqasi yo‘qligi aniq bo‘ladi» [4, 144].

Afg‘on ko‘ngillilarining intizom muammosini yanada chuqurroq tahlil qilsak, bu holat madaniy va siyosiy omillar birikmasidan kelib chiqqan deb baholash mumkin. Afg‘on harbiy an‘anasida qabila itoati davlat intizomidan ustun turgan; bunday muhitda tarbiyalangan askar buxorochoa ierarxiyaga, ya‘ni o‘zi qadrsizlashtirilgan deb hisoblagan tizimga bo‘ysunishni mensimasdan rad etishi tabiiy edi. Bu hodisa zamonaviy harbiy sotsiologiyada «yuqori motivatsiyali, ammo past institusional integratsiyali» ko‘ngilli kuchlarning xarakterli muammosi sifatida qaraladi.

Islohotlar taklifi va ularning ahamiyati

D.N. Logofet tomonidan taklif qilingan besh bandlik islohotlar dasturi [1, 220-221] o‘sha davr uchun ilg‘or huquqiy yechim sifatida baholanishi mumkin. Chegara komissarliklarini tashkil etish, afg‘on fuqarolarini ro‘yxatga olish va ularni maxsus huquqiy himoya ostiga olish g‘oyasi aslida zamonaviy migratsiya huquqining ibtidoiy shakllarini eslatadi. Ammo bu takliflar hech qachon to‘liq amalga oshirilmagan: 1920-yilda Buxoro amirligining qulab tushishi bu islohotlar rejalarini tarixning zarbxonasida qoldirib ketdi.

Logofetning taklif qilgan chegara komissarligi tizimini zamonaviy analogiya orqali baholasak, bu aslida bugungi kunda BMT Qochqinlar bo‘yicha Oliy Komissarligi bajarayotgan funksiyaga o‘xshash mexanizmni XIX asr sharoitida joriy etishga urinish edi. Muallif faqat buyruq beruvchi siyosatchiga o‘xshamaydi. U aniq vakolat, aniq moliyalash va aniq hududiy bo‘linishni belgilagan. Bu hujjat o‘z davrining amaliy davlat boshqaruvi modeli bo‘lgan va uning amalga oshirilmaganligi tariximizdagi muhim yo‘qotilgan imkoniyatlardan biri sifatida qaralishi lozim.

## **XULOSA**

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida yashagan afg‘on fuqarolari turli kasb-hunar sohalari: savdo, zargarlik va harbiy xizmat bilan shug‘ullanib, amirlik iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga o‘z hissasini qo‘shgan. Ularning Buxoroda mavjudligi geografik jihatdan keng bo‘lib, Buxoro shahri, Qarshi, Ko‘lob, Patta-Gisar va Darband kabi hududlarni qamrab olgan.

Biroq ularning huquqiy ahvoli nihoyatda og‘ir bo‘lgan: afg‘on fuqarolari Buxoro amaldorlari tomonidan bo‘ladigan zo‘ravonlik, mulk musodara qilish va asossiz qamoq kabi huquq buzilishlaridan aziyat chekkan. Rus protektoratining siyosati boshqarish va aralashmaslik o‘rtasidagi ziddiyat afg‘on fuqarolarini himoyasiz qoldirib, ularni tizimli ekspluatatsiyaning oson nishoniga aylantirgan.

Rossiyaning Buxorodagi vakillari tomonidan taklif qilingan islohotlar chegara komissarliklari, alohida ro‘yxatga olish tizimi va afg‘on fuqarolarini rus qonunlari himoyasiga olish kabi muammolarni hal etishning ilg‘or va amaliy yo‘li bo‘lishi mumkin edi. Ammo siyosiy vaziyatning keskin o‘zgarishi va 1920-yilgi Buxoro inqilobi bu loyihalarni amalga oshirish imkonini bermadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, afg‘on fuqarolarining Buxoro amirligidagi tarixi bu nafaqat mahalliy tarix, balki XIX–XX asr chegarasidagi Markaziy Osiyo geosiyosatining, uch davlati Buxoro, Rossiya va Afg‘oniston o‘rtasidagi murakkab munosabatlar zanjirining yorqin aksidir.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Д.Н. Логофет — «Бухарское ханство под русским протекторатом» Томъ II. С.-Петербургъ, 1911. С – 357.
2. Olufsen O. The Emir of Bokhara and His Country. – London, 1911. – 617 p.
3. А. И. Ишанов. Создание Бухарской народной советской республики (1920-1924 гг.). Т: 1955. - Б – 182.
4. А. И. Пылёв. Политическое положение Бухарского эмирата и Хи винского ханства в 1917— 1920 гг. Выбор путей развития. — СПб.: Петербургское Востоковедение, 2005. С – 192
5. Rajabov Q., Inoyatov S. Buxoro tarixi. – T.: «Tafakkur», 2016. – 460 b.
6. Abdurauf Fitrat. Amir Olimxonning hukmronlik davri / (tojikchadan Н. Qudratillayev tarjimai). – T.: «Minhoj», 1991. – 64 b.
7. Хайдаршо Пирумшоев. Русские дореволюционные исследователи о городах восточной Бухары конца XIX-начала XX вв. – Душанбе, Дониш, 1991. С – 132.
8. Искандаров Б. Из истории Бухарского эмирата - Москва, 1958. – С – 133.
9. В. И. Липский. Горная Бухара. ЧАСТЬ I. С.-ПЕТЕРБУРГЪ. 1896. С – 735.